



## XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING QARORI

190400. Boysun tuman. Hayot abadiy ko'chasi 1-uy. tel (376)33 53259

2023 - yil «17» - yanvar

VI-58-6-8-110-K/23

Boysun tuman hokimligi

### **Boysun tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig'i stavkalarini belgilash haqida**

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2023-yil 10-yanvardagi VI-65-14-8-0-K/23-sonli qaroriga asosan Boysun tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig'i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i B.Akramovning bergan hisoboti tinglandi va deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari Boysun tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2023-yil 10-yanvardagi VI-65-14-8-0-K/23-sonli qarori hamda Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i B.Akramovning O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan tumanda yuridik yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig'i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisobotlari ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Moliya bo'limi (T.Jumayev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (B.Akramov)ga:

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga asosan tuman bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun 29,0 mln. So'm hamda jismoniy shaxslarning bir kvadrat metr yer uchun 268 so'm bazaviy soliq stavkalari bo'yicha taklif kiritilganligi (yuridik

va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan

2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan viloyat televideniyesi bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlarni amalga oshirish va televideniye orqali ommaga taqdim etish;

belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘chalar kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llashlari yuzasidan ma‘lumotlarni ta‘minlab berish;

xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini 5 (besh) kun ichida soliq to‘lovchilarga ma‘lumot uchun yetkazilishini ta‘minlash;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

har chorak yakunida yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalarini asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun 2023-yilda tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, “Boysun” gazetasi (X.Qarayev), tuman hokimligi axborot xizmati (Y.Xoliyorov)ga mazkur loyihani amalga oshirishdan maqsad va uning tuman iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy

komissiyasi (O‘.Jabborov) zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qaror “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**A.Ch.Jo'rayev**

Xalq deputatlari Boysun tuman  
Kengashining  
2023 yil 17 yanvardagi  
VI-58-6-8-110-K/23-son qaroriga  
1-ilova

**Boysun tumanidagi mahalla fuqarolar yig'inlari bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun belgilangan yer solig'i bazaviy stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar**

| №   | Mahalla fuqarolar yig'inlari nomi | Yuridik shaxslar uchun yer solig'i stavkasi |  | Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasi |                                      |
|-----|-----------------------------------|---|--|--|--------------------------------------|
|     |                                   | Koeffitsent miqdori                         | Soliq summasi (1 gektar uchun, so'mda) | Koeffitsent miqdori                          | Soliq summasi (1 kv.m uchun, so'mda) |
| 1.  | “Avlod” MFY                       | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 2.  | “Ariq-usti” MFY                   | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 3.  | “Bibishirin” MFY                  | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 4.  | “Bog'ibolo” MFY                   | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 5.  | “Boshrobot” MFY                   | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 6.  | “Gaza” MFY                        | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 7.  | “Darband” MFY                     | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 8.  | “Dahnaijom” MFY                   | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 9.  | “Dashtig'oz” MFY                  | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 10. | “Dehibola” MFY                    | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 11. | “Duoba” MFY                       | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 12. | “Inkabod” MFY                     | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 13. | “Qizilnavr” MFY                   | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 14. | “Kosiblar” MFY                    | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 15. | “Ko'lqamish” MFY                  | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 16. | “Ko'chkak” MFY                    | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 17. | “Munchoq” MFY                     | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 18. | “Mustaqillik” MFY                 | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 19. | “Obi” MFY                         | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 20. | “Pasurxi” MFY                     | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 21. | “Poygaboshi” MFY                  | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |
| 22. | “Pulhokim” MFY                    | 0,70  | 20 300 000,00                          | 0,70   | 187,6                                |

|     |                     |      |               |      |       |
|-----|---------------------|------|---------------|------|-------|
| 23. | “Sayrob” MFY        | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 24. | “Temir Darvoza” MFY | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 25. | “Tillokamar” MFY    | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 26. | “Tog‘chi” MFY       | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 27. | “To‘da” MFY         | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 28. | “Tuzbozor” MFY      | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 29. | “O‘rmonchi” MFY     | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 30. | “O‘rta Machay” MFY  | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 31. | “Xo‘jabulgon” MFY   | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 32. | “Xo‘jaidod” MFY     | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 33. | “Hunarmandlar” MFY  | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 34. | “Chilonzor” MFY     | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 35. | “Chorchinor” MFY    | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 36. | “Shirinobod” MFY    | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 37. | “Shifobuloq” MFY    | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 38. | “Sho‘rsoy” MFY      | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |
| 39. | “Yuqori Machay” MFY | 0,70 | 20 300 000,00 | 0,70 | 187,6 |